

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Saparova Gulzada Alauatdin qizi

Nukus shahri 4-son maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi

ANNOTATSIYA

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish hozirgi kundagi muhim pedagogik-psixologik muammolardan biri sanaladi. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maxsus metodika asosida ijtimoiy-hissiy rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotning dastlabki natija va xulosalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiylashuv, ijtimoiy-hissiy rivojlantirish, emotsional rivojlantirish, emotsional tajriba.

KIRISH

Yaqin vaqtlargacha bolalarda intellektual imkoniyatlarni shakllantirish asosiy pedagogik vazifa bo'lib keldi, biroq, uning hissiy olami, boshqa insonlar bilan munosabatini tashkil etish, jamoada muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish, ijtimoiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalasiga uncha ham e'tibor qaratilmadi. Emotsional tajriba va qiziqishlarga asoslangan holda bolaning turli faoliyatlar jarayonida bilish, anglash, aniqlab olish qobiliyati shakllanadi, turli emotsiyalar mazmunini tushunish va ifodalash, kattalar ko'magida ularni differentsiyalash, o'z emotsional holatini baholash va boshqarish amalga oshiriladi va olamga, boshqa kishilarga, o'ziga nisbatan emotsional-pozitiv munosabat shakllanadi. Natijada bolaning jamoada o'zini erkin his qilishi, boshqalar bilan muloqot qilishi va munosabatga kirishishi yengillashadi, ijodiy imkoniyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoitlar yanada kengayadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologiyada maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish bu yo'nalishdagi boy intellektual merosga borib taqaladi va mumtozlikka daxldor Dyushen, Darwin, Spenser, Vundt va boshqa ko'pgina olimlar ishlarida izchil o'rganilgan. Shuningdek, P.K.Anoxin, V.K.Vilyunas, K.E.Izard, S.L.Rubinshteyn, P.M.Yakobson, L.I.Bojovich, T.E.Konnikova, A.N.Leontev, V.S.Muxina va boshqa tadqiqotchilar emotsiyalar mohiyati, shaxsning umumiy rivojlanishi, ichki pozitsiyasi namoyon etilishida axloqiy kechinmalar rolini tadqiq etishgan [1-6].

Mamlakatimiz tadqiqotchilaridan N.Sh.Abdullaevaning "Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish" (2019), Sh.A.Zokirxonovanning

“Maktabgacha tashkillashtirilgan ta’lim jamoasi bolalarida tish kariesi profilaktikasini takomillashtirish” (2018), N.X.Begmatovning “Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning ilmiy- metodik asoslari” (2012), Sh.A.Sodiqovning “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi talabalarini ijtimoiy-pedagogik faoliyatiga tayyorlash” (2009) kabi yo‘nalishlarda tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologiyasini o‘rganishga oid bir qator tarjibalarni o‘rganish natijasida quyidagilar namoyon bo‘ldi:

- kuchli ijtimoiy taraqqiyot sharoiti maktabgacha yoshdagi bolalarga o‘z ta’sirini ko‘rsatib, jiddiy emotsional sinovlarga duch kelishiga sabab bo‘layotir, bu esa bolalar emotsional olamining rivojlanishini orqaga surishi mumkin;

- bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish bo‘yicha mavjud dastur va metodik materiallar hozirgi kunda yanada takomillashtirishni taqozo etadi;

- uyda va maktabgacha ta’lim tashkilotida amalga oshiradigan barcha faoliyatlarida bolalar ko‘pincha o‘zlarining quvonch, ma’yuslik, hayrat, aybdorlik kabi emotsiyalarini to‘g‘ri ko‘rsata olmaydilar, shu bilan bir qatorda boshqa bolalarning emotsiyalarini ham to‘g‘ri baholashda qiynaladilar. Bu esa ko‘p hollarda bolalarning tengdoshlari va kattalar bilan muloqotga kirishib, munosabat o‘rnatishlarini to‘g‘ri tashkil eta olmasliklariga sabab bo‘lmoqda;

- hozirgi kunda bolalarning televizor, kompyuter, internet va mobil aloqa vositalari olamiga qiziqib kirishib ketishi natijasida kattalar va tengdoshlari bilan nisbatan oz munosabatda bo‘lishi kuzatilayotir, mazkur vaziyatlar bolalarning boshqalar hissiy holatiga nisbatan past darajada, befarq munosabat bildirishi holatlariga olib kelmoqda.

Takliflar:

- maktabgacha yoshdagi bolalarda barcha faoliyatlar asosan o‘yin orqali amalga oshirilishini nazarda tutganda, rolli va syujetli o‘yinlar ijtimoiy-hissiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin;

- ota-onalar farzandlariga ko‘proq vaqt ajratishlari zarur, chunki, ilk bolalik davrida ijtimoiy hayotga olib kirishda oilaning ta’siri beqiyos;

- kuylangan yoki tinglangan qo‘shiq, o‘qib berilgan ertak, she’r va hikoyalar asosida bolalar bilan birgalikda inssenirovkalar yaratish ijobiy ahamiyatga egadir.

Demak, ijtimoiy-hissiy rivojlantirish – maktabgacha yoshdagi bolalarni turli faoliyat va xulq-atvor ko‘rinishlarining ajralmas qismi sifatida tizimli rivojlantirishni taqozo etadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tashkil etiladigan turli faoliyatlar, syujetli-rolli o‘yinlardan tashqari, taklif etilayotgan maxsus metodika

asosida mashg'ulotlarni amalga oshirish orqali ular o'z hissiyotlarini, harakatlarini boshqarish, o'zlari, yaqinlari, tengdoshlari, oilasi va jamiyat a'zolari bilan munosabatga kirishish ko'nikmalarini yanada chuqurroq o'zlashtiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi O'RQ-595-son Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son. – 20 b. Elektron manzil: <https://lex.uz/docs/4646908> Murojaat qilingan sana: 8.10.2020.
2. "O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor qo'yilmoqda" // Prezident Sh.Mirziyoevning O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. Elektron manzil: <https://kun.uz/news/2020/08/31/shavkat-mirziyoyev-ozbekistonda-yangi-bir-uygonish-uchinchi-renessans-davriga-poydevor-qoyilmoqda> Murojaat qilingan sana: 11.10.2020.
3. HAYITOVA, Y. (2021). SOME STROKES TO THE POEM OF THE SHODMONKUL SALOM. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (10), 1033-1036.
4. Muxtorova, M. (2022). MOTHER AS A SYMBOL OF THE MOTHERLAND IN THE WORKS OF SHAFOAT RAHMATULLO TERMIZI. Science and Innovation, 1(4), 302-305.
5. Muxtorova, M. (2022). SHAFOAT RAHMATULLO TERMIZIY IJODIDA ONA–VATAN TIMSOLI. Science and innovation, 1(B4), 302-305.
6. Muxtorova, M. (2023). SHAFOAT TERMIZIY SHE'RLARIDA FOLKLOR ASOSIDAGI OBRAZLAR TALQINI. Models and methods in modern science, 2(12), 98-100.
7. Окбўтаев, Б. Х. (2023). ТАСАВВУФ ИЛМИ ВА НАЖМИДДИН КОМИЛОВ. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE, 2(3), 90-96.
8. Окбўтаев, Б. (2023). СЎФИЁНА АДОЛАТЗ. Talqin va tadqiqotlar, 1(21).
9. Рахматуллаева, Ш. З. (2013). О НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ ЗНАЧИМОСТИ ФОРМ ОБРАЗА ДЕЙСТВИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ. Theoretical & Applied Science, (6), 139-143.
10. Usmanova, M. (2016). SOME NOTE OF SIMPLIFICATION OF MORPHEMIC STRUCTURE OF THE UZBEK LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (11), 27-31.
11. Аликулова, М. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭПИТЕТОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АИ КУПРИНА. Scientific progress, 4(5), 387-390.

- 12.** Teshabayevna, K. U. (2023). Some Aspects of Teaching the Russian Language in the Primary School. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(6), 43-45.
- 13.** Курбанова, У. (2023). РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 565-569.
- 14.** Isakovna, I. R. (2023). LITERARI THE ROLE OF IMAGE ENHANCEMENT TECHNIQUES IN THE PROGRESS. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(07), 48-52.
- 15.** Jurraevich, Y. J. (2022). COURSE OF EPILEPSY IN CHILDREN, PROGNOSIS AND REHABILITATION ISSUES. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 32-37.
- 16.** Jurraevich, Y. J. (2023). Clinical Course of Epilepsy in Children, Prognosis and Rehabilitation Issues. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(6), 130-133.
- 17.** Mukhtarova, H. K., & Istamov, M. B. (2022). Forensic Psychiatric Aspects of Patients Who Complete Socially Dangerous Actions. *INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES*, 1(6), 28-31.
- 18.** Мухторова, Х. К. (2023). КЛИНИЧЕСКИЙ СЛУЧАЙ ПАРАНОИДНОЙ ШИЗОФРЕНИИ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ФОРМИРОВАНИЯ БРЕДОВОГО ВАРИАНТА СИНДРОМА КАНДИНСКОГО-КЛЕРАМБО. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(11), 25-28.
- 19.** O'qituvchilar.com. O'qituvchi portali. Elektron manzil: <https://uchitelya.com/pedagogika/139363-metodika-lesenka-vg-schur.html> Murojaat qilingan sana: 10/11/2020.